O‘ZBEK ZAMONAVIY TILSHUNOSLIGIDA KOGNITIV PARADIGMANING ISTIQBOLLARI HAQIDA

[1]Pardayev Zafar Nizomovich,
[2]Haydarov Shohqadam Mamayusupovich
[1,2]filologiya fanlari nomzodi, dotsent v.b.
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
https://doi.org/10.5281/zenodo.14604300

ANNOTATSIYA

Antropotsentrik yondashuv zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Shunga bog‘liq holda lingvistikada sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika kabi bir qator ilmiy sohalar rivojlanmoqda. Bu esa lingvistik tadqiqotlarda til va tafakkur, til va ong aloqalari tabiatiga yanada chuqurroq kirib borish uchun zamin yaratadi. Maqolada tilshunoslikda paradigmalar almashinuvi, kognitiv paradigma va uning shakllanishi, tadqiq obyekti, istiqbollari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

KALIT SO‘ZLAR

Antropotsentrik paradigma, kognitiv lingvistika, kognitiv grammatika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, konsept, konseptosfera, lingvomadaniyatshunoslik, mantiqiy tahlil, nutqiy tafakkur mantiqiy tahlil, nutqiy tafakkur.

АННОТАЦИЯ

Антропоцентрический подход является одним из основных направлений современной лингвистики. В связи с этим в лингвистике развивается ряд научных направлений, таких как социолингвистика, психолингвистика, лингвокультурология, когнитивная лингвистика. Это создает основу для дальнейшего углубления в лингвистических исследованиях природы отношений языка и мышления, языка и разума. В статье речь пойдет о смене парадигм в лингвистике, о когнитивной парадигме и ее формировании, об объекте исследования, перспективах.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Антропоцентрическая парадигма, когнитивная лингвистика, когнитивная грамматика, социолингвистика, психолингвистика, концепт, концептосфера, лингвокультурология, логический анализ, логический анализ дискурсивного мышления,

	дискурсивное мышление.
ABSTRACT	**KEY WORDS**
Anthropocentric approach is one of the main faculties of modern linguistics. In connection with this, a number of scientific fields such as sociolinguistics, psycholinguistics, linguistics, cognitive linguistics are developing in linguistics. This creates the opportunity for deeper penetration into the nature of language and thought, language and mind connections in linguistic research. The article talks about the exchange of paradigms in linguistics, the cognitive paradigm and its formation, the object of research, and its prospects.	Anthropocentric paradigm, cognitive linguistics, cognitive grammar, sociolinguistics, psycholinguistics, concept, conceptosphere, linguistics, logical analysis, discourse thinking, logical analysis, discourse thinking.

KIRISH. Har qanday ilm-fan, jumladan tilshunoslik taraqqiyotida ham ilmiy paradigmalar navbati bilan o‘zgarib turadi. Tilshunoslik tarixida uchta – qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va kognitiv (antropotsentrik) paradigmalar ajratiladi.

XIX asrda qiyosiy-tarixiy metod asosida tadqiqotlar olib borish til ilmida keng qo‘llanildi. Qiyosiy-tarixiy paradigmaning shakllanishi shu bilan bog‘liq. Lingvistik ta’limotlar tarixida yangi davr «tilni munosabatlar sistemasi sifatida o‘rganish natijasida struktur tilshunoslik umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik singari dialektik kategoriyalar asosida til va nutqni izchil ravishda farqladi. Til birliklarining markaziy va chegara belgilari aniqlandi»[Nurmonov A., 2008:50-51]. Shuning uchun ham sistem-struktur paradigmada asosiy diqqat e’tibor so‘z strukturasini o‘rganish, idrok etish bilan xarakterlanadi.

XXI asr bo‘sag‘asida an’anaviy va struktur tilshunoslik bag‘ridan neolingvistika va antropotsentrik lingvistika o‘sib chiqdi. Bunday lingvistikaning rivoji jahonda gumanitar fanlarda diskursiv burilish deb nomlangan davrga to‘g‘ri keldi. Tilshunoslik ilmiy paradigmasiga «til shaxsi» kategoriyasining kiritilishi ilgari tilshunoslik nazaridan chetda qolgan, lekin tilshunoslikka yaqin bo‘lgan fanlarda keng qo‘llanilgan shaxs, ong, tafakkur, faoliyat, xulq, vaziyat singari tushunchalarning o‘zlashtirilishiga olib keldi[Nurmonov A., 2008:51-54]. Kognitiv paradigma antropotsentrizm tamoyiliga suyanadi, «insoniyat tomonidan aniqlangan, o‘zining yaratuvchisi va foydalanuvchisi bilan aloqadorlikdan tashqarida tushunarli

hamda izohlash mumkin bo‘lmagan til» [Kravchenko A. V., 1996: 160] ekanligini anglash natijasida yuzaga keladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda yetakchilik qilayotgan antropotsentrik nazariyaga ko‘ra inson tabiat va jamiyatning asosiy figurasi bo‘lib, u jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar markazida turadi. U obyektiv olamda yuz beruvchi turli voqea-hodisalar, harakatlardan ma’lum darajada ta’sirlanadi va o‘z navbatida ularga munosabat ham bildiradi. Bu munosabat turli nutqiy vaziyatlarda har xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Muloqotning yuzaga kelishi suhbatdoshlarning ma’naviy-madaniy saviyasi, yoshi, nutqiy vaziyatga bog‘liq bo‘ladi. So‘zlovchi munosabatining qay tarzda yuzaga chiqishi uning jamiyat tomonidan belgilab qo‘yilgan ma’naviy-axloqiy mezonlarga amal qilishi, o‘z sezgilari, didiga tayanishi, go‘zallikni qanday idrok qilishi, aqli va his-tuyg‘ulariga asoslanishidan kelib chiqadi. Bu esa tilning etika, estetika, psixologiya kabi fanlar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, mazkur sohalarni o‘zaro bog‘lovchi chorraha markazida insonning nutqiy faoliyati turadi. Shu asosda zamonaviy tilshunoslikda jamiyat va inson nutqi munosabatini o‘rganuvchi sotsiolingvistika, lisoniy birliklar va muayyan sub’ekt nutqi orasidagi bog‘liqlik haqida bahs yurituvchi pragmatika, nutqning milliy-etnik jihatlarini tadqiq etuvchi etnolingvistika, anglash va bilish, nutqning maqsadi, kommunikativ vaziyatdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganuvchi psixolingvistika kabi yo‘nalishlari maydonga keldi. Bu esa lingvistik tadqiqotlarda til va tafakkur, til va ong aloqalari tabiatiga yanada chuqurroq kirib borish uchun zamin yaratadi. Tilshunoslikda lisoniy hodisalar tahliliga **kognitiv yondashuv** til va tafakkur, so‘z ma’nosi, uning o‘zaro munosabati muammolarini kategoriyalash va konseptlashtirish orqali bilimning turli strukturalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tilda namoyon bo‘lish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Kognitologiya – bilim va tafakkur, borliq va uning obyektiv qonuniyatlarini o‘rganish, anglash, idrok qilish natijalari haqidagi fan bo‘lib, u to‘plangan ma’lumotlarning muayyan tizimiga aylanganki, bizning ongimizda ma’lum tarzda joylashgan va o‘z tabiatiga ko‘ra tafakkurning kognitiv jarayonlaridan tarkib topgan. Shuningdek, kognitiv fan bilim tuzilishi jarayonlarini o‘rganish, turli xil axborotlarni qayta ishlash, saqlash, foydalanish, tashkillashtirish va to‘plash, inchunun, bu tuzilmalarning inson miyasida shakllanishini o‘rganishni ham o‘z ichiga oladi.

Insonning falsafa, ruhiyat, mantiq, nafosatshunoslik, axloq bilan bog‘liq faoliyati to‘g‘ridan to‘g‘ri til bilan aloqadordir. Inson ongi, voqelikdagi voqea-hodisalarni idrok qilish qobiliyati, fikrlashi hamda o‘z kommunikativ maqsadini ifodalash imkoniyatlarini aks ettiruvchi simptomatik jarayonning qanday amalga oshishi bevosita til birliklarini tanlashi va qo‘llay olishiga bog‘liq. Aynan

sub'ektning lisoniy faoliyati orqali tilning aloqa, xabar va ta'sir etish kabi ijtimoiy vazifalari namoyon bo‘ladi. Inson til vositasida o‘zini o‘rab turgan obyektiv olam, tabiat va jamiyat bilan bog‘liq voqea-hodisalar to‘g‘risida ma'lumotlarga ega bo‘ladi, bilimini oshiradi. Shunisi xarakterliki, til birliklari ishtirokiga qadar bo‘lgan jarayon birgina subyekt bilan bog‘liq bo‘lib, u faqat birgina shaxs ongida yuz beradi. Qachonki munosabat tilga ko‘char ekan, endi u boshqacha xususiyat kasb etadi.

Insonning obyektiv voqelik to‘g‘risidagi to‘plagan bilimlari so‘zlashuv, ilmiy, rasmiy, publitsistik va badiiy nutq ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun insonning nutqiy faoliyati o‘tgan asrning 60-yillarida asta-sekin kognitiv yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning ham mavzusiga aylangan edi. Bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarda til belgilar tizimi, xabarlarning transformatsiyasi va kodlanishini voqelantiruvchi, xotira tuzilishi va unda ma'lumotlarni izlash va faollashtiruvchi jarayonni, sun'iy intellekt va shunga o‘xshash masalalarni ifodalovchi kognitiv qurol sifatida qaralar edi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Manbalarda qayd etilishicha, bu yo‘nalish 1970-yillarning ikkinchi yarmida shakllangan bo‘lib, kognitiv lingvistika atamasi ilmiy muomalaga 1975-yilda Dj.Lakoff va G.Tompsonlar tomonidan kiritilgan edi [Starichenok V.D., 2008:247-248]. 1989 yilga kelib, Duysburg (Germaniya)da mazkur sohaning dolzarb muaammolariga bag‘ishlangan ilmiy anjuman bo‘lib o‘tdi va unda kognitiv lingvistika bo‘yicha assotsiatsiya yaratildi. R.Lenekerning kognitiv grammatikasi, L.Tellining ko‘plab ishlari, J.Lakoff va M.Jensonening tadqiqotlari, J.Fokonen tomonidan amalga oshirilgan ishlar kognitiv lingvistikaning alohida soha sifatida qat'iylashuvi hamda taraqqiy etishiga zamin yaratdi[Kubryakova Y.S.,2004]. O‘tgan asrning oxirlariga kelib dunyoning turli mamlakatlarida kognitiv lingvistika bilan shug‘ullanuvchi maktablar paydo bo‘ldi.

Kognitiv lingvistika til va ongning murakkab munosabatini o‘rganishda yangi bosqichga aylandi[Vigotskiy L.S., 1999:352 6,7] Bunday tadqiqotlarni neyrofiziologlar, shifokorlar, ruhshunoslar boshlab berdilar (P.Broka, K.Vernike, I.M.Sechenov, V.M.Bexterev, I.P.Pavlov va b.). Neyrofiziologiya bazasida lisoniy faoliyat inson miyasida kechishini hamda uning so‘zlash, eshitish, o‘qish va yozish kabi harakatlari bevosita bosh miyaning turli qismlari bilan bog‘liqligini aniqlagan neyrolingvistika yo‘nalishi[Luriya A. R., 1979:320] vujudga keldi.

Keyingi yillarda kognitiv tilshunoslik predmeti va kategoriyalarini turli nuqtai nazardan talqin etishga bag‘ishlangan tadqiqotlar yaratildi. Kognitiv lingvistika kategoriyalarini belgilashda olimlar tilni tizim sifatida va nutqiy voqelanishini o‘rganishda yangi yo‘nalishlarni aniqladilar. So‘z yasalishini o‘rganishda, grammatik kategoriyalarni aniqlashda kognitiv yondashuv yo‘llari ishlab chiqildi[Boldirev N.N., 1998].

O‘zbek tilshunosligida ham lisoniy hodisalar mohiyatini aniqlashga kognitiv nuqtai nazaridan yondashilgan tadqiqotlar amalga oshirildi. Jahon tilshunosligida bu yo‘nalishda erishilgan salmoqli yutuqlarga nazar tashlansa, o‘zbek tilshunosligi uchun kognitiv tilshunoslik mutlaqo yangi soha ekanligi ma’lum bo‘ladi. Shunga qaramay o‘zbek tilshunosligida ham lisoniy hodisalar mohiyatini ochib berishga kognitiv nuqtai nazaridan yondashilgan ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. O‘zbek tilshunosligida kognitiv yo‘nalishdagi tadqiqotlar olib borish endigina boshlangani bois bu yo‘nalishda olib borilgan har bir tadqiqot ma’lum darajada ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘zbek tilshunosligida mazkur sohada ham ma’lum yutuqlar qo‘lga kiritilayotganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, prof. Shaxriyor Safarovning kognitiv tilshunoslikka bag‘ishlangan kitobi [Safarov Sh.,2006:86] bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning qaldirg‘ochi bo‘ldi desak, xato bo‘lmaydi. Bundan tashqari O‘.Q.Yusupov, S.Muhamedova, D.Xudoyberganova, Q.Nazarov, A.Jo‘raev, M.Yuldoshev, Sh.Haydarov kabi olimlarning maqolalari, M.Rahmatova, O.Anorqulovalarning dissertatsiyalari[Raxmatova M., 2019:13; Anorqulova O., 2023:20] kognitiv tilshunoslik muammolariga bag‘ishlanganligi e’tiborga molik.

Tadqiqot metodologiyasi. Tilshunoslikda mentallik xususiyatiga ega bo‘lgan til birliklari belgilar tizimi sifatida tushuniladi va ular vositasida inson o‘zini o‘rab turgan obyektiv olamga xos xususiyatlarni asta-sekinlik bilan anglaydi, voqelik faktlarini o‘zlashtira boradi. Ana shu holatda tilning o‘z ijtimoiy vazifalarini namoyon etishi bevosita amalga oshiruvchini – inson ishtirokini taqozo qiladi. S.Muhamedova to‘g‘ri qayd etganidek, «an’anaviy lingvistikada, asosan, belgining ifoda plani va mazmun planiga e’tibor qaratilar edi, kommunikatsiya jarayonining realizatori bo‘lgan insonning o‘zi esa tadqiqotchilarning nazaridan chetda qolib keldi»[Muhamedova S., 2010:189-191]. Zamonaviy tilshunoslikning an’anaviy tilshunoslikdan farqi shundaki, unda lisoniy hodisalar mohiyatini ochib berishda belgining ifoda va mazmun planiga emas, balki mazkur jarayonni amalga oshiruvchi inson omiliga, insonning bu jarayondagi o‘rniga alohida e’tibor qaratiladi. Kognitiv tilshunoslik shu asosda inson ongidagi milliy-madaniy, ruhiy-falsafiy, qomusiy, mantiqiy bilimlari zaxirasi va ularni nutqning og‘zaki va yozma shakli orqali namoyon bo‘lishini ta’minlovchi vosita – tilni ongga bog‘liq holda o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qo‘yadi va lingvistik tadqiqotlarda shunga asoslanadi.

Muayyan kognitiv fanlarning boshqa qoidalaridan farqli ravishda mazkur tilshunoslikda insonga xos kognitiv tuzilma va jarayonlar tahlil etiladi. Bunda birinchi o‘rinda insonning tilni o‘zlashtirish mexanizmi va lisoniy bilimlar tuzilishi tamoyillarini sistemali tasniflash va izohlash turadi. Shunga ko‘ra, tilni o‘zlashtirish va uning tuzilish tamoyillari hamda mental xususiyatlarning namoyon bo‘lishi, til birliklari qo‘llanilishining kognitiv jihati, olam manzarasini lisoniy idrok qilishning

kognitiv jarayoni kabi masalalarni kognitiv tilshunoslikda o‘rganishga e’tibor qaratiladi. Kognitiv tilshunoslikda so‘zlovchi yoki nutq qaratilgan shaxsning ichki kognitiv tuzilishi va dinamikasini tavsiflash va izohlash asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslikning ko‘zda tutgan vazifalari jumlasiga til hodisalarini sistemali ifodalash emas, balki ushbu tizimni tadqiq etish va uning asosiy tamoyillarini joriy qilish ham kiradi. Kognitiv tilshunos uchun til bilimining mental reprezentatsiyasi qanday bo‘lishi lozimligi va bu bilim kognitiv qanday qayta ishlanishi hamda «kognitiv haqiqat» qanday bo‘lishini tushunish muhim hisoblanadi[Demyankov V.Z., 1994:22].

Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi insonlarni o‘rab turgan muhitni, insoniyat tarixi va madaniyatini, urf-odatlarini o‘rganishda, anglab olishdagi ishtirokini aniqlash, inson ongidagi mavjud tajribaga suyanib, to‘plangan bilimni ma’lum tartibga tushirish, uni boshqalarga uzatishda vositachilik qilayotgan tilning ahamiyatini tadqiq etishdir. O‘zaro bog‘liq bo‘lgan, biri ikkinchisini to‘ldiruvchi bu yo‘nalishlarning maqsadi inson nutqi va uning aloqaviy sifatlarini, aloqa, xabar, ta’sir etish kabi ijtimoiy vazifalarning voqelanishida lisoniy vositalarning o‘rni va imkoniyatlarini aniqlashdir.

Tilshunoslarning e’tirof etishicha, mazkur fan inson miyasi mental jarayonlarining umumiy tamoyillari, boshqaruv haqida bahs yuritib, u idrok qilish jarayonlarining tafakkurlanishi, kategoriyalarga bo‘linishi, tasniflari, bilim o‘sishi qanday kechishi, axborot bilan bog‘liq faoliyat sistemalarini o‘rganadi[Boldirev N.N., 2001:8]. Konseptlashtirish jarayonlari bilishning uzviy qismini tashkil etuvchi faoliyat namunasi hisoblanadi. Ular ongda yonma-yon kechadi, ammo ularning maqsad va natijalari turlicha namoyon bo‘ladi. Konseptlashtirish jarayoni inson tomonidan atrof dunyoni bilish faoliyatidagi amaliy tajriba natijalari hisoblangan mental sath mazmuniy birliklarini ajratishga qaratilgan. Hozirgi fanda bilish, fikrlash va lisoniy jarayonlarni birlashtiruvchi atama konseptdir. Konsept olam haqidagi tasavvurlarni aks ettiradi va lisoniy vositalar bilan voqelanadi. Konsept to‘g‘ridan-to‘g‘ri ong bilan mos bo‘lgan til belgisiga aloqador bo‘lgan moddiy yoki ideal obyektning xayoliy obrazidir. Konsept yordamida tushuncha mundarijasi nomlanadi, fikr ifodalanadi.

Tahlil va natijalar. S.Muhamedovaning ko‘rsatishicha, kognitiv tilshunoslikning bugungi kunda quyidagi asosiy yo‘nalishlari mavjud: 1) Bilishning biologik nazariyasi; 2) Bilishning biomadaniy nazariyasi; 3) Sun’iy intellekt yaratish nazariyasi; 4) Kognitiv semantika yo‘nalishi [Muhamedova S., 2010:189-191]. Ko‘rinadiki, zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik tamoyil turli xil xususiy ko‘rinishdagi aniq ifodalarda namoyon bo‘ladi va so‘zlovchi lisoniy ongida aks etgan lisoniy hodisalarni keng doirada tadqiq etish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Kognitiv tilshunoslikda inson nutqiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan: 1) til va inson ma’naviyati; 2) til, tafakkur va inson ongi; 3) inson fiziologiyasi va til; 4) til va madaniyat; 5) til va muloqot; 6) til va inson qadr-qimmati kabi muammolar mavjudligi qayd etiladi [Kubryakova Y.S., 1997:22-31]. Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilshunosligida kognitiv paradigmaning shakllanishida semasiologik, semasiologik grammatika, mantiqiy tahlil, nutqiy tafakkur, onomasiologik, psixologik yo‘nalishdagi tadqiqotlar ilmiy nazariy asos bo‘lib xizmat qildi hamda kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, lingvomadaniyat, psixolingvistika kabi sohalarning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratildi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, bunday tadqiqotlarda inson omili, shaxs va til munosabatiga e’tibor kuchayib borayotganligi kognitiv paradigma mazmun-mohiyatini voqelik faktlarini idrok etish, voqea-hodisalarning yuzaga kelish sabablarini bilish, tushunish, ularni tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishga oid yangi tushunchalar va kategoriyalarning hosil bo‘lishiga zamin hozirlamoqda. Bu esa o‘zbek tilshunosligida kognitiv paradigma asosidagi tadqiqotlarning mazmun mundarijasini aniq belgilab olish, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, o‘ziga xos tadqiq va tahlil usullarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Demak, kognitiv tilshunoslik til vositalarining kognitiv tuzilishini o‘rganuvchi lingvistikaning zamonaviy istiqbolli yangi yo‘nalishidir. Bu sohadagi konseptual lisoniy tahlil inson ongidagi kognitiv tuzilmalar to‘g‘risida muayyan ilmiy ma’lumotlar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Нурмонов А. Лингвистик таълимотнинг янги босқичи // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008.№6. –Б.50-54.
1. 2.Кравченко А.В. Язык и восприятие: Когнитивные аспекты языковой категоризации [Текст] / А.В. Кравченко. – Иркутск: Изд-во Иркутского ун-та, 1996. – 160 с.
2. Стариченок В.Д. Большой лингвистической словарь.Ростов на-Дону: Феникс, 2008.-С.247-248.
3. Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика - психология - когнитивная наука // ВЯ № 4,1994; Кубрякова Е.С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики//Вопросы когнитивной лингвистики. №1. 2004.
4. Выготский Л.С. Мышление и речь. Изд. 5, испр. — Издательство «Лабиринт», М., 1999. -352 с.
5. Лурия А. Р. Основные проблемы нейролингвистики. - М., 1976.; Лурия А. Р. Язык и сознание./ Под редакцией Е. Д. Хомской. -М: Изд-во Моск. ун-та, 1979. - 320 с.

6. Болдырев Н.Н. Системные и функциональные связи языковых единиц как результат категоризующей деятельности языкового сознания // Связи языковых единиц в системе и реализации. Межвуз. сб. науч. тр. Тамбов, 1998.
7. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. -Жиззах: Сангзор, 2006. 86 -бет.
8. Муҳамедова С. Когнитив лингвистика: вужудга келиши, асосий тушунчалари ва йўналишлари //Систем-структур тилшунослик муаммолари (Н.Қ.Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари).–Самарқанд, 2010. 189-191-бетлар.
9. Рахматова М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида «гўзаллик» концептининг лисоний хусусиятлари. Фалсафа докторлиги (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2019. – 13-бет.
10. Anorqulova O. O‘zbek tilida “ota” konseptining lisoniy-kognitiv talqini. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2023.-20-bet.
11. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // ВЯ № 4, 1994. – С.22.
12. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика: Курс лекций по английской филологии. -Тамбов, 2001. –С.8.
13. Кубрякова Е.С. Язык пространства и пространство языка. (к постановке проблемы) // Изв. РАН – СЛЯ – 1997. №3. –С. 22-31.
14. Yuldashev, M. and Haydarov, Sh. 2022. The Terms of Concept and Its Interpretations in Linguistics. International Journal on Integrated Education. 5, 6 (Jun. 2022), 455-461. https://www.neliti.com/publications/412326/the-terms-of-concept-and-its-interpretations-in-linguistics
15. 16.Haydarov Sh. “Zid qutibli” konseptlarning Shukur Xolmirzayev asarlaridagi o‘rni. International scientific and practical conference."science, education and innovation: problems, solutions and prospects" may17-18, 2024. https://doi.org/10.5281/zenodo.1136866